



YO‘L XO‘JALIGI SOHASI YANGICHA YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-sentabr kuni
yo‘l xo‘jaligi tizimini isloh qilish masalalari
bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.**

So‘nggi 6 yilda mamlakatimizda yo‘llar qurish va ta‘mirlashga ajratilayotgan mablag‘lar 3 karra oshgan. Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tarkibidagi korxonalarga 2 mingdan ziyod maxsus texnikalar xarid qilingan. Bular orqali 65 ming kilometrlik yo‘llar qurilgan va ta‘mirlangan.

O‘tgan yildan “Mening yo‘lim” loyihasi ham boshlanib, ichki ko‘chalar aholi takliflari asosida qurilib, ta‘mirlanadigan tizim joriy qilindi. Shu yilning o‘zida 470 ta mahalladagi ichki yo‘llar uchun 410 milliard so‘m yo‘natildi. Natijada 3 million 600 ming aholining mushkuli oson bo‘ldi.

Umuman, 3 mingga yaqin mahallalar yo‘llariga ilk bor asfalt yo‘tazildi, yana 2 mingta mahalladagi tuproq yo‘llar shag‘al qoplamaga o‘tkazildi.

Lekin sohada bir qator tizimli muammolar ham bor. Asosiy kamchiliklardan biri — qurilayotgan yo‘llarning sifatsizligi. Yangi yo‘llar ko‘p o‘tmay yaroqsiz ahvolda qalayotgani uchun yana ta‘mirlanmoqda.

Yo‘llarni loyihalash me‘yorlari eskirgan. Ularning katta-kichikligi yoki hududlarning iqlim sharoitiga qaramay, bir xil andoza qo‘llanmoqda. Loyihalarda yo‘l bo‘yi infratuzilmasi nazarda tutilmagani boisi aksariyat savdo va servis shoxobchalari tartibsiz joylashgan.

Sifat pastligining yana bir sababi — yo‘l nazoratining ustligi. Bu boradagi hozirgi talablar shundayki, texnik nazoratchilar asosiy vaqtini yo‘lning sifati tekshirishga emas, pudratchining hujjatlarini o‘rganishga sarflaydi. Yo‘l qurilishida zamonaviy texnikalarni boshqara oladigan malakali kadrlar yetishmaydi.

Yo‘llarni monitoring qilishning avtomatlashgan tizimi yo‘qligi sababli qaysi yo‘ldan qanday hajmda yuk o‘tayotgani ma‘lum emas. Yo‘llarda uning yuk ko‘tarish imkoniyatidan og‘ir bo‘lgan transportlar ham harakatlanmoqda.

Yig‘ilishda shu kabi muammolar tahlil qilinib, yangi chora va takliflar ko‘rib chiqildi.

Sifati yo‘l odamlarning kayfiyati va iqtisodiyotimiz “arteriyasi” hisoblanadi. Shu bois yo‘l qurilishiga yangicha yondashuvlarni joriy qilib, sifati oshirish, sohani raqamlashtirish va xususiy sektorni keng jalb qilish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, ta‘mirlash va saqlash bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Avvala, loyihalashni kompleks yondashuv asosida takomillalashtirish zarurligi ta‘kidlandi. Ya‘ni bugungi kun talabidan kelib chiqib, avtomobillar to‘xtash joyi, yonilgi quyish shoxobchasi, ovqatlanish, savdo va texnik xizmat ko‘rsatish obyektlari qayerda joylashishi, qayerda daraxt ekilishi loyihaning o‘zida mujassam bo‘lishi kerak.

Davlatimiz rahbari yo‘l qurilishida

O‘ZA.

“resurs” usulidan “hajm” usuliga o‘tish taklifini qo‘llab-quvvatladi. Bu borada Xalqaro konsultant muhandislar federatsiyasi standartlari qo‘l keladi. Unga ko‘ra maxsus sertifikatga ega muhandislar yo‘l qurilishidagi barcha jarayonlarni nazorat qiladi va yakuniy sifatga javob beradi.

Ichki yo‘llarni qurish va ta‘mirlash uchun byudjet mablag‘lari faqat “Mening yo‘lim” dasturi orqali ajratilishi aytiladi.

— Endi qayerda ichki yo‘l qurish, qaysini ta‘mirlashni odamlarimizning o‘zi hal qiladi. Shunday qilsak, loyihani tanlab olishda va sifati ta‘minlashda ochiqlik bo‘ladi, to‘liq jamoatchilik nazorati o‘rnatiladi, — dedi Prezident.

Kelgusi yil mazkur dastur uchun kamida 800 milliard so‘m ajratilishi belgilandi.

Ma‘lumki, rivojlangan mamlakatlarda ham yo‘llarni qurish yoki ta‘mirlash to‘liq davlat hisobidan amalga oshirilmaydi. Yurtimizda xususiy sheriklik bo‘yicha qonuniy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, yo‘l sohasida bu jarayon sust ketmoqda. Shu bois investorlarga qo‘yiladigan shartlar va davlatning majburiyatlarini aniq belgilab, yo‘l loyihalariga xususiy sheriklarni faol jalb qilish zarurligi qayd etildi.

Shuncha mablag‘ va mehnat bilan qurilayotgan yo‘llarni sifati saqlash ham zarur. Masalan, chet ellarda yo‘llarda yuk transportlari vaznini o‘lchaydigan nazorat tarozilari o‘rnatiladi. Bunday tarozilarni mamlakatimizda ham xususiy sheriklik asosida o‘rnatish taklifi bildirildi.

Shaharlardagi yo‘llarni saqlash va atrofini ko‘kalamzorlashtirish uchun obodonlashtirish boshqarmalari maxsus texnikalar bilan ta‘minlanadi.

Bugungi kunda yo‘llarda huquqbuzarliklarni qayd etuvchi 2 ming 500 dan ziyod kamera va radarlar o‘rnatilgan. Aholi yashash joylarida cheklangan tezlik 60 kilometr-soatga tushirilgan. Natijada yo‘l-transport hodisalari 30 foizga kamaygan. Haydovchilarga qulaylik yaratish uchun “aqlii chorraha” va “aqlii svetfor” boshqaruv tizimlarini kengroq joriy qilish zarurligi aytiladi.

Tumanlarda yo‘l va ko‘priklar qurish hamda ta‘mirlash bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilish, yo‘l korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish va moddiy-texnika bazasini yaxshilash yuzasidan topshiriqlar berildi.

Umuman, yig‘ilishda qayd etilgan barcha choralarni inobatga olgan holda, avtomobil yo‘llari sohasini rivojlantirish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Soha mutasaddilari va viloyat hokimlari kun tartibidagi masalalar bo‘yicha axborot berdi.

“The Times”:

O‘ZBEKISTON – AJOYIB MAMLAKAT

Buyuk Britaniyaning mashhur “The Times” kundalik gazetasida nashr muharriri, sayohatchi-jurnalist Lyusi Perrinning O‘zbekiston sayyohlik brendi elchisi Sofi Ibbotson ko‘magida yozilgan maqolasi chop etildi.

Dunyo nigohi

Maqola britaniyalik jurnalistning mamlakatimizga qilgan safari tafsilotlari asosida tayyorlangan. Unda muallif o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashadi, diqqatga sazovor joylar — tarixiy obidalar va tabiiy landshaftlar, shuningdek, yurtimizning zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini qalamga olgan.

“O‘zbekiston britaniyaliklar orasida juda mashhur emas — har yili ushbu mamlakatga Buyuk Britaniyadan 10 mingga yaqin odamlar tashrif buyuradi xolos. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, Markaziy Osiyo davlatlarini mustaqil ravishda aylanib chiqish g‘oyasi menga biroq qo‘rqinchli tuyuldi, — deb yozadi u. — Biroq men guruh safariga qo‘shilishni xohlamadim va murosaa yo‘lini tanladim. Mahalliy gid bilan shaxsiy sayohat, u yerda men ishonchli qo‘llarda bo‘lganimda imkon qadar ko‘proq narsani o‘rganishimga yordam berdi. Eng muhimi, hech narsani oldindan rejalashtirishning hojati yo‘q, tezyur poyezdlar va arzon ichki reyslar bir sayohatda barcha qiziqarli narsalarni ko‘rish imkonini berdi”.

Maqolada qayd etilishicha, Londondan yetti soatlik parvoz yo‘lida joylashgan O‘zbekiston 1500 yildan ortiq vaqt davomida uzoq Sharqni G‘arb dunyosi bilan bog‘lab turgan qadimiy Ipak yo‘lining markazida joylashgan. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab milodiy XV asrgacha Ipak yo‘li 4000 milyadan ortiq masofaga cho‘zilgan. Dunyoning 40 ta davlatini kesib o‘tgan ushbu qadimiy yo‘l o‘zaro savdo-sotiqni rivojlantirishga xizmat qilgan. Mazkur yo‘l orqali o‘zaro tovar almashish rivojlandi. Xususan, Xitoydan ipak, Hindistondan qimmatbaho toshlar Yevropaga olib kelingan. Bundan tashqari, Ipak yo‘li xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvni rag‘batlantirishga ham katta xizmat qilgan. Jumladan, madaniy-gumanitar almashinuvlar Marko Polo kabi tarixchilar orqali xalqlarimiz hayotiga kirib bordi.

“O‘zbekiston poytaxti Toshkent karvonsaroylari bilan mashhur manzil bo‘lgan. Chorsu bozori tarixda shunday maskanlardan biri edi, — deb yozadi britaniyalik sayohatchi-jurnalist. — Bugungi kunda otlar, aravalar va Marko Polo kabi sayyohlar yo‘q. Ularning o‘rnida to‘kin-sochin zamonaviy bozor qad rostlab turibdi. Bozorning butun bir qavatini o‘zbek shirinliklari an‘analarini namoyish qiluvchi bo‘lim egallagan. Bu yerda holvadan tayyorlangan turli ko‘rinishdagi shirinliklarni sotib olishingiz mumkin. Sotuvchilarning aytishicha, onalar yangi tug‘ilgan chaqaloqning tili

ostiga holva qo‘yishar ekan. Ushbu odat agar bolalar kelajakda tadbirkor bo‘lsa, xaridorlar bilan muloqotga kirishishga yordam berar ekan”.

Britaniyalik jurnalist o‘z maqolasida, shuningdek, qadimiy Xivani muhtasham shahar va ochiq osmon ostidagi muzey sifatida tasvirlaydi.

“Uning qadimiyligi Ipak yo‘li savdogarlari o‘tgan yog‘och darvozalarida o‘yib bitilgan. Men kelgan kuni shaharda qum bo‘roni ko‘tarildi va u shunchaki huvullab qoldi. Kimsasiz qolgan ko‘chalar bo‘ylab sayr qilish, kino suratga olayotgan truppa maydonchani tashlab ketganidan keyin kino sahnasiga chiqish kabi tuyuladi. Shaharda murakkab mozaikali koshinlar bilan bezatilgan minoralar ustunlik qiladi. Har bir burchakda madrasa va diniy ulamolarning qabrlari qo‘yilgan maqbaralarni ko‘rish mumkin. Men Yevropada biz ko‘rishga oshiqadigan diqqatga sazovor joylar haqida eslay olmayman. Xivaning islom me‘morchiligi bilan solishtirganda, Eyfel minorasi Lego to‘plamiga, Trevi favvorolari esa to‘lib-toshgan basseyniga o‘xshaydi”, deydi u.

“The Times” gazetasi muxbiri Xivadan Buxoroga ketayotganda cho‘l bag‘ridagi qadimiy qal‘alarni ko‘rganini bayon etgan.

“Biz Ayozaqla‘da to‘xtadik. U yerda IV asrda qurilgan uchta qal‘a bor va bir vaqtlar podshohlar yashagan saroylar xarobalarini ko‘rdik. Bu yerda hech qanday jonzo‘t yo‘q, vayronalarni tepadan kuzatib turgan qushlar “qo‘riqlardi”, deb yozadi muallif.



Sirojiddin VOHIDOV olgan surat.

Jurnalist, shuningdek, Buxoroga qilgan sayohati, shahardagi qadimiy timlar va Poyi Kalon me‘moriy ansambli haqidagi hayajonlarini ham qog‘ozga tushirgan.

“Shunchalik hayratlanarliki, ularning go‘zalligi meni o‘ziga rom etdi. Hayajonlarimni jilovolmay qoldim, ko‘zimga yosh keldi. Ammo bu ko‘rganlarim bizni keyingi bekabda — Samarqandda kutayotgan mo‘jizalar oldida hech narsa emas ekan”, deya qayd etadi nashr muallifi.

Jurnalist Registon bilan tanishuvi haqida yozar ekan, ushbu tarixiy maydonning go‘zalligi oldida lol qolganini yashirib o‘tirmaydi: “Kunduzi binolarning sehri sizni o‘z domiga tortadi, uning asiriga aylanasiz. Ushbu maydon minglab mozaikalar bilan qoplangan. Menga eng yoqqani, Registonga kiraverishda cho‘zilib

yo‘tgan ulkan yo‘lbarslar bo‘ldi. Kechki payt quyosh botganida maydon oltin va yashil chiroqlar bilan yoritiladi. Ushbu soniyalarda ko‘z o‘ngingizda sehrli manzara gavdalanadi”.

“Samarqanddan 25 chaqirim narida, mahalliy aholi o‘rtasida omad keltiruvchi joy sifatida ta‘riflanadigan millionlab buloqlari bo‘lgan Mingbuloq qishlog‘i joylashgan. Oilalar bu yerga buloqning muqaddas suvida cho‘milish uchun kelishadi. Shuningdek, ular yerga gilamlarni to‘shab, farzandlari bilan hordiq chiqaradi. G‘or ichida joylashgan ziyoratgohga yosh kelin-kuyovlar ham duo olish maqsadida tashrif buyurishadi”, deb yozadi Lyusi Perrin.

“Dunyo” AA.
London

Aks sado

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI

**XALQIMIZ ORZU-UMIDLARI RO‘YOBIGA
XIZMAT QILUVCHI HAYOTIY HUJJAT**

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Unda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda uni 2023-yilda sifatlil va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident qarorining mazmun-mohiyati, bu borada partiya va uning fraksiyalarini oldida turgan vazifalar muhokama qilindi. Mazkur dasturilamal hujjatning ahamiyati yuzasidan fraksiyalar rahbarlari o‘z pozitsiyasini bildirdi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DOLZARB MASALALAR — KENGASH A‘ZOLARI MUHOKAMASIDA

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Kengash yig‘ilishida dastlab davlatimiz rahbarining shu yil 11-sentabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatlil va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish, ularda belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlashda parlamentning ishtirokiga doir masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Qayd etib o‘tilganidek, kelgusi yetti yilda mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi mazkur dasturilamal hujjatlar xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonda barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlashga qaratilgan nihatda ahamiyatlidir.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida uning maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari qulay shaklda ifodalangan bo‘lib, unda 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta maqsad nazarda tutildi. Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish, barqaror iqtisodiy o‘rnatish orqali aholi farovonligini ta‘minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi erishish, “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish ana shular jumlasidandir.



Tabiat uvoliga qolmang!



NEGA QULOQ TUTMAYAPMIZ?

Insoniyat aql-u tafakkuri bilan dunyo o‘zgarimoqda. Iqtisodiyot va fan-texnika tobora ravnaq topmoqda. Biroq bu yuksalishlar, bir tomondan, inson og‘irini yengil qilib farovonlikka yo‘l ochayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tabiatga, atrof-muhit va ekologiyaga jiddiy ta‘sir ko‘rsatayotgani ham barchamizga ayon. Oqibatda, Yer yuzida iqlim keskin o‘zgarib bormoqda.

Bir mintaqada qurg‘oqchilik bo‘lsa, boshqasida misli ko‘rilgan yog‘ingarchiliklar kuzatilyapti. Mamlakatimizdagi purviqor tog‘lar cho‘qqisida qishin-yozin turgan oppoq qorlar endilikda saratonga yetmasdan irmoqlarda suv bo‘lib oqib tushayotganiga ko‘nikib ulgurmasimizdan Arktika-yu Antarktidadagi azaliy muzliklar ham okean suvlariga qo‘shilib,

yo‘qlikka yuz tutmoqda. Qishda qor, bahar va kuzda yomg‘ir yog‘ishining keskin kamayishi mintaqamizda daryolar sathining pasayishiga, suv tanqisligi yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Qisqacha aytganda, tabiatga ayovsiz munosabatimiz uchun u bizdan “o‘ch” olmoqda.



ADABIYOT IXLOSMANDLARIGA MUNOSIB TUHFA

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasida Oʻzbekiston Qahramoni, taniqli olim va adib, adabiyotshunos, mohir tarjimon Ibrohim Gʻafurovning “Asarlar/Adabiyot dunyosi: sakiz jildlik toʻplami” taqdimoti boʻlib oʻtdi. Unda davlat va jamoat arboblari, yozuvchi-shoirlar, adabiyot ixlosmandlari, yoshlar qatnashdi.

Taqdimot

Tadbirda xalqimiz tafak-kurini boyitish, maʼnaviyatini yuksaltirishga qaratilgan ish-lar silsilasida milliy adabi-yotimizni yanada rivojlanti-rishga, ijodkorlarni har tomon-lama qoʻllab-quvvatlashga alohida eʼtibor qaratilayotgani taʼkidlandi.

Ibrohim Gʻafurov — ana shunday eʼzoz va ehti-romdan kuch olib, beqiyos zavq-shavq, tuganmas ilhom bilan ijod qilib kelayotgan olim va tarjimon. Uning adabi-yotshunoslikka oid asarlari xalqimizning adabiy qarash-larini yangilashga katta his-sa qoʻshdi. Jahon adabi-yoti durdonalaridan qilingan tarjimalari inja sanʼatimizni yanada boyitdi. Modern sheʼriyatiga hamohang tarzda yaratgan mansuralari olim-lar tomonidan yangi adabiy hodisa sifatida baholandi.

Filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov toʻlqinlanib yozganidek, Alloh taolo bu insonga alohida zavq va idrok ato etgan. Bizda hech bir tanqidchi sheʼriy asarni Ibrohim Gʻafurdek qiyomiga yetkazib tahlil qilgan emas. U hech qachon asar muallifiga aql oʻrgatib, hukmfarmonlik etmagan. Aksincha, u sheʼrni goʻzal sanʼat asari deb, sanʼat qonuniyati asosida oʻrganar ekan, muallif bilan sheʼriyat haqida suhbat quradi va shu orqali kitobxonning ham dil torlarini sozlab, goʻzallik-dan bahra olishga undaydi. Shunda asarning yutugʻi ham, kamchiligi ham namoyon boʻlib boraveradi.

— Ustoz Ibrohim Gʻafu-rov oltmish yildan oshib-diki, oʻzbek adabiyotidagi jarayonlarni teran tahlil, tadqiq va talqin etib keladi, — deydi filologiya fanlari doktori Shahnoza Nazaro-va. — Sakiz jildlik asarlar toʻplamiga muallifning ilm-iy-adabiy merosining eng sara namunalari jamlandi. Oʻtgan asrning 60-yillaridan to hozirgacha eʼlon qilingan asarlar yana bir bor muallif nazariidan oʻtkazildi, zaruriy tuzatishlar kiritildi, yanada boyitildi. Bu kitoblarni oʻtgan asrda qolib ketmadi, yangi zamon oʻquvchilari uchun qaytadan tirildi. Biz yangi adabiyot, yangi adabiyot-shunoslikni orzu qilamiz. Bu yangi adabiyot, yangi adabiyotshunoslik Ibrohim Gʻafurov maktabi ostona-laridan boshlanadi, deya ishonaman. Toʻplam nainki soha mutaxassislari, balki soʻz sanʼatini, adabiyotimizni sevgan, qadrlagan barcha uchun munosib tuhfa boʻldi. Kelgusida ustoz Ibrohim Gʻafurovning eng sara tar-jima asarlari ham nashr etilishi rejalashtirilgan.

Tadbirda atqoli adabiyot-shunos va tarjimon Ibrohim Gʻafurovning ijod hamda ha-yot yoʻli, adabiy talqinlarida oʻziga xoslik, badiiy asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy gʻoyalar haqida soʻz yuritildi.

Dilshod KARIMOV
 (“Xalq soʻzi”).

Koʻrik-tanlov

“BIR NURONIY — OʻN YOSHGA MASʼUL”

Samarqandda “Bir nuroniy — oʻn yoshga masʼul” respublika koʻrik-tanlovining viloyat bosqichi boʻlib oʻtdi. Tanlovda tuman, shahar bosqichlarida birinchi oʻrinni egallagan nuroniylar uchta shart boʻyicha bellashdi.

Yakuniy natijalarga koʻra, birinchi oʻrinni Kattaqoʻrgʻon shahri vakili — Bahridin Shomamatov qoʻlga kiritib, tanlovning respublika bosqichiga yoʻllanma oldi. Ikkinchi oʻrin payariqlik Ismoil Boltayevga, uchinchi oʻrin narpaylik Hamza Roʻzimurodovga nasib etdi.

— Prezident qarori asosida “Bir nuroniy — oʻn yoshga masʼul” tamoyiliga muvofiq, har bir mahalladagi yoshlar katta hayotiy tajribaga ega hamda zamonaviy fikrlaydigan faol nuroniylarga biriktirilishi

belgilangan edi, — deydi “Nuroni” jamgʻarmasi viloyat boʻlimi raisi Shuhrat Negmatov. — Shunga koʻra, bugun viloyatimizdagi mahallalarda nuroniylar yoshlarga biriktirilgan. Mazkur ijtimoiy loyihadan maqsad ibratli va katta hayot tajribasiga ega nuroniylarni jamiyat hayotiga faol jalb qilishdan iboratdir.

Tanlov soʻngida gʻolib va sovrindorlar hamda faol ishtirokchilarga pul mukofoti hamda esdalik sovgʻalar topshirildi.

Abdulaziz YOʻLDOSHEV
 (“Xalq soʻzi”).

RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR — TARAQQIYOT ASOSI

Xalqimizda toʻyga toʻyona bilan kelishdek qadimiy anʼana mavjud. Shu maʼnoda aytganda, Buxoro viloyatidagi sanoat va ishlab chiqarish korxonalari ham Vatanimiz mustaqilligining shonli 32 yillik bayramini mehnatda ulkan zafarlar bilan kutib olishdi.

Izlanish

Koʻp tarmoqli “Buxoro agroklaster” masʼuliyati cheklangan jamiyati tizimida ellikka yaqin ishlab chiqarish subyektlari mavjud. Ulardan biri — sutni qayta ishlash korxonasida ishlab chiqarish hajmi oshib, mahsulot turi koʻpayib bormoqda. 2021-yilda faoliyatini boshlagan bu korxonada 150 nafarga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qilyapti. Yiliga 22 ming tonna sut qayta ishlanmoqda. Aholi dasturxoniga sut, kefir, yogurt, qaymoq, smetana, ayron kabi qirq turdagi mahsulotlar peshma-pesh yetkazilyapti.

— “Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi asosida ishlab, quvonchli yutuqlarni qoʻlga kirityapmiz, — deydi korxona bosh texnologi Nodira Husainova. — Ayrim mahsulotlarimiz, deylik, rayhonli ayron oʻz sifati, taʼmi jihatidan nafaqat Oʻzbekiston, balki Oʻrta Osiyoda yagona, desak, aslo mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Gap shundaki, korxonamizda Italiyaning zamonaviy texnologik liniyalari oʻrnatilgan. Ular bizga sutni obdan tozalash va hatto hidini yoʻqotish imkonini beradi. Binobarin, mahsulotlarimizga yildan-yilga talab oshib boryapti.

Bizga hamrohlik qilgan standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlik baholash sohasi xodimlari ham bu yerda tayyorlanayotgan mahsulotlar xalqaro meʼyorlarga javob berishini taʼkidlashdi. Mahsulotlar, maxsus avtomashinalar vositasida Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari, Toshkent shahridagi buyurtmachilarga yetkazilayotgani, korxona tadbirkorlari Yevropa davlatlariga pishloq eksportini yoʻlga qoʻyish ustida izlanayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

“Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi asosida ishlab, muayyan yutuqlarga erishayotgan yana bir korxona — “Siyavush Textile Buxara” masʼuliyati cheklangan jamiyatidir. “Gʻijduvon” erkin iqtisodiy zonasining Kogon tumani hududida faoliyat koʻrsatayotgan korxona toʻqimachilik sanoati uchun muhim xomashyo sanalagan akril kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan.

— Bu yerda yiliga 40 ming tonna mahsulot tayyorlash imkoniyati mavjud, — deydi korxona sex boshligʻi Ulugʻbek Sharipov. — U toʻqimachilik sanoati uchun muhim xomashyo sanaladi. Akril kalava ipga talab

nihoyatda katta. Shu bois ishni uch smenada tashkil etganmiz. Korxona toʻla quvvat bilan ishlay boshlagach, ishchilar soni ming nafarga yetadi.

— Oʻtgan yili umumtaʼlim maktabini tugatdim, — deydi tumandagi Siyozpiyon qishlogʻida yashovchi Orif Jalilov. — Shunday yirik va zamonaviy korxonaning ish boshlagani menga oʻxshab tuzukroq ish izlab yurgan qishloq yoshlari uchun ayni muddao boʻldi. Mehnat qilib, otanamizga roʻzgʻor tashvishlarini yengillashtirishda koʻmakdosh boʻlyapmiz. Prezidentimiz yaqinda viloyatimizga tashrif buyurganida korxonamizda ham boʻldi. Davlatimiz rahbari nazari tushgan shunday zamonaviy korxonada ishlayotganimdan xursandman.

“Siyavush Textile Buxara”da amalga oshirilgan biznes loyihaga kelsak, u nafaqat viloyat, balki Markaziy Osiyoda noyob sanaladi. Uning sharoifati bilan byudjetga yiliga 4,5 mlrd. soʻm miqdorida qoʻshimcha tushum tushadi. Umuman, “Gʻijduvon” erkin iqtisodiy zonasi hududida 2022-yilda qiymati 101 mln. AQSH dollariga teng 30 ta biznes loyiha ishga tushirildi. Natijada 584 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shundan 339 mln. AQSH dollari miqdoridagi mahsulot eksport qilindi. Joriy yil yakuniga qadar yana 10 ta biznes-loyiha hayotga tatbiq etilishi bilan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish turi va miqdori yanada koʻpayadi.

— Agar eksportchi korxonalarining soʻnggi yillardagi oʻsish surʼatini tahlil qilsak, bu borada ijobiy tendensiyan

mashinasi topshirildi.

Avval ham tikuvchilikka qiziqishi boʻlgan va endi zarur ish quroli bilan taʼminlangan ayol tezda bu hunarni mukammal oʻzlashtirib, mahallada mohir tikuvchi sifatida tanildi.

— Hozir buyurtma asosida koʻrpa, koʻrpacha, dasturxon va shu kabi turli buyumlar tikaypman, — deydi B. Norova. — Buyurtmalar koʻp, shu



bois mahallamizdagi yana bir ayolni yordamchilikka oldim. Ishimiz baroridan kelsa, alohida tikuvchilik sexini tashkil etish niyatidaman.

Ayolning roʻzgʻoridan koʻngli toʻlsa, xonadoni saranjom-sarishta, fayzli, oilada maʼnaviy muhit, koʻtarinki kayfiyat barqaror boʻladi. Shunday ekan, “yordam koʻrsatildi”, “ish bilan taʼminlandi” degan quruq hisobotlar bilan cheklanmay, ayollar bandligiga real erishish, mavjud muammolarni qayta-qayta oʻrganish, zarur hollarda esa imkoniyat yaratib berish, albatta, oʻzining ijobiy samarasini beradi.

Jahongir BOYMURODOV
 (“Xalq soʻzi”).



kuzatamiz, — deydi “Oʻzbekiston milliy metrologiya instituti” davlat korxonasi Buxoro filiali direktori U. Bozorov. — Masalan, 2022-yilda viloyatda eksportchi korxonalar soni 190 tani tashkil etgan. Keyingi ikki yilda ular soni 30 taga koʻpaydi.

Aytish joizki, raqobatbardosh mahsulot tayyorlash, asosan, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ishlarining oqilona yoʻlga qoʻyilishiga bogʻliq. Shundan kelib chiqqan holda, soha xodimlari eksportga koʻmaklashish, menejment tizimlarini joriy etish kabi yoʻnalishlarda korxonalar bilan hamkorlikda ish olib borishmoqda. Mazkur hamkorlik natijasida viloyatdagi 37 ta korxonada xalqaro standartlar talablariga muvofiq menejment tizimlari joriy etildi. Yil oxiriga qadar 90 ta korxonada xalqaro standartlarga muvofiq, sifat menejmenti tizimlarini

sertifikatlashtirish ishlari yakuniga yetkazildi. Bu mahalliy mahsulotlar eksport geografiyasini kengaytirishda qoʻl keladi.

Xullas, bir paytlar agrar hudud sifatida qaralgan Buxoro viloyatining sanoati bugun izchil rivojlanish pallasida. Deylik, bu yerda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 27,2 trln. soʻmni yoki 106,2 foizni tashkil etgan boʻlsa, joriy yil yakunida bu koʻrsatkich 36,2 trln. soʻmga, oʻsish surʼati esa 113,2 foizga yetishi kutilmoqda. Hozirdayoq oʻndan ziyod turdagi import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilayotgani esa sifatga birlamchi masala deya qaralayotgani dalolatidir.

Istam IBROHIMOV
 (“Xalq soʻzi”).

Bunyodkorlik

UY-JOYLAR OʻZ EGALARIGA TOPSHIRILDI

Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida 100 ta xonadonga moʻljallangan 5 ta koʻp qavatli yangi turarjoy qurilib, oʻz egalariga topshirildi.

Shu munosabat bilan oʻtkazilgan tadbirda soʻzga chiqqanlar aholining uy-joy taʼminotini yaxshilash mamlakatimizda inson qadrini ulugʻlash borasida olib borilayotgan ezgu ishlarning amaliy ifodasi ekanini taʼkidladi.

— “Oʻz uying, oʻlan toʻshaging” degan naqlning maʼnosini uy-joyga muhtoj insonlar juda yaxshi ang-laydi, — deydi hazorasplik Mohira Saʼdullayeva. — Biz ham ancha yillardan buyon uy-joy masalasida qiyналиb kelayotgan edik. Tumani-mizning yashash uchun qulay hisoblangan hududida barpo qilingan yangi uy-lardan 3 xonali kvartira bizning oilamizga ham nasib etdi. Yangi uy oilamizga yangi orzu-umidlarni, baxt olib kirdi.

Hazorasp tumani ahol-isi soni bugungi kunda 200 ming nafardan osh-di. Uy-joyga boʻlgan ehti-yoj ortishi natijasida koʻp qavatli uy-joylar qurilishi koʻlami ham kengaymoqda. 2021-yilda tumanda 130 ta xonadonga, oʻtgan yili 152 ta xonadonga moʻljallangan koʻp qavatli uylar qurilgan boʻlsa, joriy yilda 416 ta xo-nadonli 17 ta koʻp qavatli uy foydalanishga topshirildi.

Odilbek ODOMBOYEV
 (“Xalq soʻzi”).

“BESH TASHABBUS OLIMPIADASI”

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sportning voleybol, minifutbol hamda stol tennis turlari boʻyicha fakultetlar kesimida musobaqalarga start berildi.



Sport

Prezidentimizning tegishi Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston-ni taraqqa-yot strategiyasida yoshlarni, xususan, institut talabalarini sport tadbirlariga keng miqyosda jalb qilish, ular oʻrtasida musobaqalar tashkil etish belgilangan.

— Instituti bunday turnirlarni oʻtkazish uchun puxta tayyorgarlik koʻrildi, — deydi Nukus davlat pedagogika instituti sport klubi raisining oʻrinbosari Atabay Yerejepov. — Jismoniy madaniyat

fakultetning tajribali professor-oʻqituvchilaridan iborat tashkiliy qoʻmita hamda hakamlar hayʼati aʼzolari musobaqalarni yuqori saviyada oʻtkazish uchun bor imkoniyatlarini safa-r a b a r e t m o q d a . Talabalarining boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida oʻtkazilayotgan ushbu musobaqalarda yoshlar faol qatnashayotir.

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida musobaqa-lar har bir fakultet kesimida, akademik guhrlar oʻrtasida 20-sentabrgacha tasdiqlan-gan jadval asosida oʻtkazilishi belgilandi.

Gʻayrat OTAJONOV
 (“Xalq soʻzi”).

KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORMISIZ?

Ayni kunlarda barcha tizim va tarmoqlarda istiqboldagi kuz-qish mavsumiga hozirlik qizgʻin pallaga kirgan. Jaronchi, “Hududga Navoiy” gaz taʼminoti filiali jamoasi ham taqsimlash punktlari va quvurlarning soz holatda boʻlishi hamda qishning izzirini kunlarida tabiiy gaz taʼminotida muammo yuzaga kelmasligini taʼminlash maqsadida ayni iliq kunlarning har bir daqiqasidan unumli foydalanmoqda.

Tadrik

Xususan, Karmana tumanidagi “Doʻstlik” hamda Qiziltepa tumanining “Malikobod” mahalla fuqarolar yigʻin-lari hududlarida bunyod etilayotgan “Yangi Oʻzbekiston” massivlarida gazlashtirish jarayonlari ketaypti.

Ushbu massivlarni gazlashtirish uchun “Hududga Navoiy” gaz taʼmi-noti filiali tomonidan jami 4 kilometrlik gaz tarmogʻi tortildi va “Doʻstlik” MFY hududida 18 ta koʻp qavatli uyning 420 xonadoni va Qiziltepa tumanidagi “Ma-likobod” MFY hududida esa 8 ta koʻp qavatli uyning 200 xonadoni hamda

bir qator ijtimoiy soha obyektlari tabiiy gaz bilan taʼminlandi.

— Bundan tashqari, Navoiy shahridagi uchta 16 qavatli uy-joyni gazlashtirish maqsadida 4,4 kilometrlik tashqi gaz tarmoqlarini tortish ishlari amalga oshirildi, — deydi filial bosh muhandisi Bahridin Xudoyorov. — Shuningdek, joriy yilda viloyatda 13 ta kichik sanoat hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etish belgilangan boʻlib, ushbu obyektlarni gazlash-tirish loyihalari asosida shu kunga qadar ularning toʻrttasiga tashqi tabiiy gaz tarmoqlari tortildi.

Maʼlumotlarga koʻra, eski

“gorelka”larning oylik gaz sarfi 650 kub metrni tashkil etib, bu yangi avtomatlashtirilgan energiya tejamkor gaz yondirgichlarga nisbatan 310 kub metr koʻp, demakdir. Shu bois aholi xonadonlarida energiyatejamkor gaz uskunalarini oʻrnatish ishlari ham jadallashgan.

Mazkur uskunalar har oy qariyb bir baravar gaz tejash bilan birga, isteʼmolchi uyda boʻlmagan kezlarda gaz oʻchib qolsa, uni avtomatik ravish-da taʼminotdan uzadi.

— Filialimiz tomonidan rejadagi 15260 dona nstandart gaz jihozini energiya tejamkor gaz jihozlariga almashtirish 3 mln. 662 ming 400 metr kub gaz tejallishini taʼminlaydi, — deydi “Hududga Navoiy” gaz taʼminoti filiali matbuot xizmati rahbari Zulfiya Boboyeva. — Eng muhimi, tejalgan gaz tabiiy gaz yetib borishi qiyin boʻlgan hududlarga taʼminotni yaxshilash uchun yoʻnaltiriladi.

Filial masʼullarining taʼkidlashi-cha, joriy mavsumga tayyorgarlik koʻrish jarayonida viloyat boʻyicha



5 dona gaz taqsimlash punkti kapita-l taʼmirlangan, 74,2 kilometr gaz quvurlari zichlikka sinalib, havo bosimi yordamida tozalangan. 124,7 kilometrlik gaz quvurlari esa tartib-ga keltirilib, boʻyoqdan chiqarilgan. Shuningdek, 177,2 kilometr yer osti gaz quvurlari pribor usuli bilan

tekshirilib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgan.

Bu xususda filial tomonidan uyushtirilgan press-tur hamda mat-buot anjumanida maʼlum qilindi.

Temur ESHBOYEV
 (“Xalq soʻzi”).



DARYOLAR FARYODIGA



NEGA QULOQ TUTMAYAPMIZ?



Bugun insoniyat o'z xatosini tushunib yetdi, albatta. Lekin juda kech "aqil" kirdi. Ana shu kechikish odamzod boshiga ne-ne qiyinchiliklarni solishi tayin. Zero, bunday global muammolardan hech qaysi mintaqada qolib ketgani yo'q. Birgina misol, Qirg'iziston va Tojikiston hududlaridagi tog'larda muzliklar global isish oqibatida o'z hajmini yo'qotib borishi natijasida Amudaryodagi suv sathi tobora pasayib ketayapti. Bunday holat esa har bir yurtdoshimizni tashvishlantirishi lozim.

Biroq afsuski, hamma ham buni chuqur anglayotgani yo'q. Aks holda daryolarning faryodiga quloq tutgan bo'lardik.

Befarqlikmi, loqaydlilik?

Sanoat korxonalaridan chiqayotgan gazlar global isish hodisasini keltirib chiqarib, suv resurslarining kamayishiga olib kelayotgan bo'lsa, daryo o'zanlarining tobora kengayib borayotgani bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. "Xalq so'zi" gazetasining o'tgan yil 13-aprel sonida chop etilgan "Daryoning uvoli urmasin" nomli maqolada bu masalaga batafsil o'talغان edik. Unda Chirchiq daryosi qirg'og'ida korxona va syexlar bahorgi qo'ziqorinday bolalayotgani, ustiga-ustak karyerlarda ish kecha-yu kunduz davom etishi — tonnalab qum-shag'al qayta ishlashni tufayli tabiiy muhitga jiddiy zarar yetayotgani tanqid ostiga olingandi. Afsuski, shu sohaga tegishli bo'lgan tashkilotlar mutasaddirlar maqolada ko'tarilgan muammoga jiddiy e'tibor qaratdi, deb bo'lmaydi. Ular hatto bir enlik xat bilan munosabat bildirishni ham ravo ko'rishmadi. Bu yozda esa daryo qirg'oqlari bir-biridan tobora uzoqlashib, suvning bug'lanish va yer tagiga singish darajasi oshib boraverdi. Faqat necha bor qilingan qo'ng'iroqlardan keyingina, oradan 3 oy o'tib, ekologiyani asrashga mas'ul Toshkent viloyatidagi tashkilot yozma ravishda javob qaytardi va ruxsat etilmagan bir nechta xo'jalik subyektlari daryo qirg'og'ini buzib, qum-shag'al olayotgani aniqlangani, ularga jarimalar ko'llanganini bildirdi. Ammo haqiqat shuki, ekologiyaga jiddiy zarar yetkazadigan bunday ishlar hozirgi kunda ham tun-u kun davom etmoqda. Mutasaddilar esa "menga nima, senga nima?" qabilida ish tutishni ma'qul ko'rishayotir.

2022-yilning noyabr oyida Oliy Majlis Senati tomonidan bu masala chuqur o'rganilib, daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash, noruda foydali qazilmalarni qazib olishning atrof-muhit, yo'l xo'jaliklari obyektlariga salbiy ta'siri yuzasidan tegishli tartibda parlament so'rovi yuborilgan edi. Parlament so'roviga berilgan javob atroficha o'rganib chiqilib, o'tgan yali majlislarda muhokama etilgan, tegishli vazifalar belgilanib, ijrosini ta'minlash bo'yicha Senatning qarori qabul qilingan.

Yaqinda Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida bu masala yana muhokamaga qo'yildi. Unda Senat ishchi guruhi tomonidan hududlarga chiqqan holda olib borilgan o'rganish natijalari tahlildan o'tkazildi.

— O'rganishlar va taqdim etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Senat qarorida belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha yetarlicha ishlar olib borilmagan, natijada sohadagi dolzarb masalalar o'z yechimini topmasdan qolmoqda, — deydi Oliy Majlis Senati Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari Risqul Siddiqov. — Birinchidan, daryo o'zanlarida qum-shag'al qazib olish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik sub'yektlaridan litsenziya yoki shartnoma muddati tugaganidan so'ng kon yoki uchastkani qabul qilib olish tartibi belgilanmagan. Jumladan, Senat qarorida ko'rsatib o'tilganidek, kon yoki uchastkani qabul qilib olish tartibini takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilmagan. Bu esa, o'z navbatida, ekologiya va atrof-muhitga jiddiy ziyon yetkazilishiga olib kelmoqda. Masalan, birgina Toshkent viloyati hududida tadbirkorlik subyekti tomonidan kon ishlari to'liq yakunlangan hamda litsenziya (ruxsatnoma)ning amal qilish muddati tugaganidan so'ng foydalanilgan 1600 gektarga yaqin maydon tashlandiq holda qoldirib ketilgan. Bundan tashqari, daryo bo'yilariga turli chiqindilar tashlanayotgani bois atrof-muhit ifloslanib, qirg'oqlarning sanitariya holati buzilgan.

Olmoqning bermog'i bor

Qo'mita raisi o'rinbosari alohida qayd etganidek, daryolardan qum-shag'al qazib olishning yer osti suvlari va ekologiyaga salbiy ta'sirini inobatga olib, daryolar qirg'oqlarini umumiy nazorat qiluvchi yagona organ belgilanmaganini achenarli hol, albatta. Bu boradagi vakolatlar bir nechta idoralar zimmasiga yuklatilgan va ularning tarqoqligi

oqibatida daryo o'zanlaridan me'yorlarga zid ravishda foydalanish holatlari hamon davom etmoqda.

Savol tug'iladi, nega biz o'zimiz suv ichadigan, dala-yu dashtni, bog'-u rog'ni yashnatadigan, hayot ato etadigan daryolarning qadriga yetmaypmiz? Axir daryolar milliy boyligimiz, bitmas-tuganmas xazinamiz-ku! Ularni ko'z qorachig'idek asrash shu yurt, shu zamin kelajagi uchun daxldor har bir insonning vazifasi emasmi?!

Nega mutasaddi tashkilotlar bu masalaga panja orasidan qarashmoqda? Hududlarda noruda foydali qazilmalar hamda qurilish uchun qum, chaqilgan tosh mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan sanoat zonalarini tashkil etish bo'yicha takliflar

Noruda materiallarini noqonuniy qazib olish holatlari bo'yicha Samarqand viloyatida 343 nafar shaxsga nisbatan 1,2 mlrd. so'm, Jizzax viloyatida 158 nafar shaxsga nisbatan 474 mln. so'm miqdorida ma'muriy jarima qo'llanilgan.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida esa Samarqand viloyatida 83 nafar shaxsga nisbatan 273 mln. so'm, Jizzax viloyatida 40 nafar shaxsga nisbatan 134 mln. so'm ma'muriy jarima qo'llanilgan. Xo'sh, aytinch, shu jarimalar undirilishi daryoni o'z holiga qaytarish uchun yetarlirmi? Toptalgan, qirg'og'i yo'q bo'lib ketayotgan daryolarimizga jarima to'lash bilan qayta jon baxsh etilishiga kim kafolat beradi?

Gap desa qop-qop, ish desa...

Bu haqda gap ketganda, Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya va Qozog'istonda daryo o'zanlaridan noruda foydali qazilmalarni qazib olish jinoiyat hisoblanishini aytib o'tishning o'zi kifoya. Qolaversa, daryodan olingan tosh, qum, shag'alni qurilish material sifatida foydalanish qat'iy taqiqlangan. Nega shunday qilingan? Negaki, daryolar milliy boylig, bog'-u rog'larini yashnatadigan, elga to'kinchilik va qut-baraka olib kiradigan muhim manba! Buni anglash uchun yana nima qilmoq kerak?

Bunday xatolar tufayli Jizzax viloyatining G'allaorol tumani hududidagi Sangzor daryosining o'zani ustiga qurilgan umumiy foydalanuvdagi "M-39" magistral va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llaridagi ko'priklar avariya holatiga kelib qolgan. Zarafshon daryosining oqimi bo'yab o'ng qirg'oqda joylashgan "Zarafshon milliy tabiat bog'i" hududida yer osti suvlari sathi 3-4 metrgacha pasayishi oqibatida daraxtlar qurib qolmoqda.

Achinarlisi, Qoradaryo va Oqdaryoda qum-shag'al materiallarining noqonuniy qazib olinishi atrof-muhit, suv va yo'l xo'jaligi ob'yektlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, hozirgi kunda daryoning suv sathi 5 metrga pasayib ketgan.

Daryolarni saqlab qolish, ulardan oqilona foydalanish yuzasidan katta sa'y-harakatlar olib borilayotgan bir paytda hududlarda ularni 2040, 2050-yillargacha kon sifatida foydalanishga berib yuborilganini qanday izohlash mumkin? Demak, daryo o'zanidan kon sifatida foydalanish mumkinligi borasida berilgan ekologik ekspertiza xulosalarini yana bir bor tahlil qilib ko'rish zarurati bor.

Tegishli mutasaddilar tomonidan bu yo'nalishda sezilarli ishlar olib borilamayotganligi sababli ushbu masala Senat yalpi majlisida takror ko'rib chiqildi. Suv tanqisligi sharoitida obihayotni isrof qilish, muhim manba bo'lgan daryolar o'zanlarini buzish, ekologiya, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish, o'simliklarni quritish va cho'llanishni keskin oshirish kabi ishlar davom etayotgani senatorlarni befarq qoldirmadi. Zotan, mintaqamizning keyingi tarqayotishi, hech shubhasiz, suv manbai bilan chambarchas bog'liq ekanini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

E'tiborsizlikning chegarasi bormi?

Senator Abdurrahim Erkeyev masalani joylarda chuqur o'rganгани bois uning nihoyatda dolzarbligi haqida kuyunib gapirdi. Muammoning oldini bugun olmasa ertaga kech bo'lishini ta'kidlar ekan, kelgusi avlod oldidagi mas'uliyatni unutmaskan muhimligiga alohida urg'u berdi.

— Muammoni o'rganish jarayonida ahvol butunlay izdan chiqqaniga amin bo'ldim, — deydi u. — To'g'ri, shahar va qishloqlarimiz qayta barpo qilinmoqda, bunyodkorlik yuksak sur'atlarda davom etyapti. Shu bois qurilish materiallariga, jumladan, qum-shag'alga ham ehtiyoj ortib bormoqda. Bu tushunarli. Lekin ikkinchi tomondan, ekologiya masalalari, daryo o'zanlarining pasayib ketayotganligi yo'larga, ko'priklarga salbiy ta'sir etayotgani ham bor gap. Ilgari daryolardan o'z oqimi bilan suv chiqadigan kanallarga endi nasoslar o'rnatishga majburiy. Daryo o'zanlarida paydo bo'layotgan chuqurliklarga suv ketyapti. O'sha joyda to'planib qolyapti, g'allaga, paxtaga suv yetib borayotgani yo'q. Bir tomondan havoga bug'lanib



ketayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tuproqqa singib, botqoq hosil bo'lyapti.

Bu esa har tomonlama zarar. Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tomonidan daryo o'zanlarini uzoq muddatga, masalan, 50 yilga kon sifatida berilgani nihoyatda achinarli hol. Shunday ekan, o'z-o'zidan savol tug'iladi: endi bu konlar muddati tugamaguncha faoliyatini davom ettiraveradimi? Yoki biz to'xtata olamizmi? Bizning irodami yetadimi, shunga? Bu masalani hal qilish uchun Tog'—kon sanoati va geologiya vazirligi nima chora ko'ryapti?

Senat qarorida suv obyektlaridan tashqari muqobil xomashyo manbalarni aniqlash va ularni savdoga chiqarish, daryo o'zanlaridagi tadbirkorlik subyektlariga berilgan litsenziyalarni bekor qilish belgilangan edi. Biroq ushbu topshiriq bajarilmaganligi sababli hanuzgacha daryo o'zanlaridan tinimsiz, shag'al-to'sh, qum qazib olinmoqda. Nega vazirlik Senat tomonidan zimmasiga yuklatilgan topshiriqni bajarmayapti? Biz "six ham, kabob ham kuymasin" deb "ma'lumot uchun qabul qilinсин", degan gaplarni qachongacha davom ettiramiz?..

Qum-shag'al kerak, lekin...

Senator A. Erkeyevning kuyunchaklik bilan bildirgan fikrlari yuzasidan tog'-kon sanoati va geologiya vaziri o'rinbosari Azizxo'ja Qobilov javob berdi.

— Haqiqatan ham shunday davr bo'lganki, daryo o'zanlaridan foydalanishga uzoq muddatli litsenziyalari rasmiylashtirilgan, — deydi u. — Bunday uzoq muddatli litsenziyalari 2019-yilgacha bo'lgan muddatda berilgan. Senatorlarning fikri to'g'ri. Bu bo'yicha biz Bosh prokuratura, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda ishchi guruh tashkil qilgan holda joyiga chiqib o'rgandik. Berilgan litsenziya, ruxsatnomalarni ikki bosqichda — birinchisi, ichimlik suvi ta'minoti obyektlariga yaqin joylashgan uchastkalar, ko'priklar atrofidagi obyektlar bo'yicha ruxsatnoma va shartnomalarni, ikkinchisi esa qolgan barcha uchastkalar bo'yicha ruxsatnomalarni bekor qilish takliflari bildirilgan.

Bundan tashqari, Prezident qarori bilan daryo o'zanlarini nazorat qiluvchi organ sifatida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi belgilandi. Ko'tarilgan masalalar ijrosini ta'minlash shu vazirlik zimmasida. Ular bizing inspektorlarimiz bilan hamkorlikda ish olib borishadi.

Keyingi masala — berilgan 78 ta ruxsatnoma va Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi "Xavfsiz daryo" DUK tomonidan berilgan 313 ta shartnomani bekor qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasidan, shaxsan Bosh vazir tomonidan topshiriq bo'lgan edi. Muqobil xomashyo materiallari manbalarini aniqlash bo'yicha bugungi kungacha biz 125 ta muqobil manbalari ro'yxatini shakllantirib, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan bir to'xtamga keldik. Shundan 94 ta muqobil uchastka bo'yicha kelishib olindi. Bu muqobil uchastkalardagi xomashyo

miqdori bugungi kunda shartnoma asosida berilgan daryo o'zanidagi xomashyo miqdoridan 5 baravar ko'p. Ya'ni daryo o'zanidagi obyektlarni muqobil uchastkalarga bemaol ko'chirish bo'ladi.

Buning uchun shu yilning o'zida 40 ta muqobil tosh-qum olinadigan uchastkani auktsionlarga chiqarib, tadbirkorlarga taklif etdik. Ayni paytda esa yuqorida aytib o'tilgan 94 ta uchastkada qizg'in ish olib borilmoqda. Har bir hududda hokimliklar bilan kelishilgan holda bu uchastkalar ham bosqichma-bosqich auktsion savdosiga chiqariladi. Va daryo o'zanidagi barcha foydalanuvchilar muqobil uchastkalarga o'tkaziladi.

— Haqiqatda o'rmon fondi yeri daryo qirg'oqlarida joylashgan, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Alijon Mamatkarimov. — Qum-shag'al qazib olingan daryo qirg'oqlarida daraxt ekish ishlari boshlandi. To'g'ri, ilgari daryo qirg'oqlarida o'rmonzorlar barpo qilinardi. E'tiborsizlik tufayli bu ishlar susayib ketdi. Endilikda respublika bo'yicha 400 gektar maydonda kuz va bahor oylarida daraxt ekish bo'yicha loyiha ishlab chiqildi.

Darvoqe, 86 ta o'rmon xo'jaligidagi qirg'oqbo'ylarining 5 kilometr joyida bahorgi mavsumda ko'chatlar ekilgan. Bundan tashqari, Chirchiq daryosi yooqasiga yaqin joylarda 19 ming tup daraxt o'tqazildi. Bu sa'y-harakatni biz butun respublika bo'yicha ommalashtirib, to'liq qirg'oqbo'yi hududlarida iqlim sharoitiga mos daraxtlarni ekamiz. Kuz oyidan boshlab bu ishga to'liq kirishamiz.

Bu fikrlar birinchi marta aytlayotgani yo'q, — deydi senator Rustam Xolmurodov. — Qancha ko'p aytilgani bilan ta'siri sezilmayapti. Buning sababi esa ko'plab rahbarlarda vatanparvarlik tuyg'usi yo'q. Axir Vatan barchamizniki, ularga ham tegishli-ku! Bu nima degan gap, axir bugungi daryolarning ahvolini yaqin o'n yillarda qayta tiklab bo'lmaydi. "O'limiz", "bajaramiz" deyilgani bu aniq javob emas. O'nlab yillar mobaynida biz daryolarni qaytarish mumkin bo'lmagan darajaga olib keldik. O'zanlari kengayib, chuqurlashib ketgan, suv yo'qolyapti. Sohillardagi hayvonot va o'simlik dunyosiga qiron kelyapti. Bu — milliy boylig-ku! Faqat O'zbekistonda bu o'simliklar, bunday hayvonlar bor. Nahotki, pul, olinadigan foyda Vatandan ham qimmatli bo'lsa?!

Prezidentimiz keyingi yetti yillikka mo'ljallangan dasturda suvni tejashga daxldor masalalarni ham izohladi. Qancha suvni biz yerlarga yo'qotaypmiz, ularni beton havzalarga, lotoklarga tushiramiz dedik. Undanam ko'p suv daryolarning o'zida yo'qolib boryapti-ku! Senat oliy organ emasmi? Nega uning qarori bajarilmaydi? Bilasizmi, Samarqand viloyatining o'zida Qoradaryo, Oqdaryo qirg'oqlari kengayib, 500 metrlik o'zan paydo bo'lgan. Suv kamayib ketyapti, chashmalar quridi. Nega litsenziyalarni muddatidan oldin bekor qilmaymiz? Dunyoning aksariyat mamlakatlarida tog' mahsulotlari qurilish materiallari sifatida ishlatiladi. Nega biz shu usulga o'tmaymiz? Bizga kim xalaqit beryapti?..

Burch, mas'uliyat, daxldorlik

Daryolar muammosi senatorlar tomonidan bir necha bor ko'tarilganiga qaramasdan aytarli ijobiy natijaga erishilgani yo'q. Aslida muammoning yechimi bor, uni hal qilsa bo'ladi. Bu haqda Senat Raisi Tanzila Norboyeva ham o'z fikrlarini bildirib o'tdi.

— Vazirlikning bizga bergan axborotidan va senatorlarning yurakdan chiqarib aytgan e'tirozlaridan sezilib turibdiki, parlament so'rovi doirasidagi ishlar qoniqarli emas, — dedi Senat Raisi. — Mutlaqo bajarilmagan, desak, to'g'ri bo'ladi. Ikkinchi marotaba ko'rib chiqaypmiz. Og'ir ahvoldagi Chirchiq, Oqdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Sangzor, Qoradaryoda sanoat miqyosida qum-shag'al qazib olishga moratoriy e'lon qilish masalasi e'tiborsiz qoldirilganini qanday tushunish mumkin? Yoki hududlarda qum-shag'alni faqat daryodan olavermasdan boshqa joylardan, masalan, tog'li hududlardan alohida sanoat zonalarini tashkil etib olish masalasi ham ochiq qolgan.

Bular alohida vazirlik yoki hokimlik tomonidan emas, balki kengroq darajada hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardir. O'zi umuman, parlament so'rovi muayyan muammoga nisbatan davlat organining, uning mansabdor shaxsi nuqtai nazarini bilish uchun, muammo bo'ladigan bo'lsa, uni hal qilish yo'llarini aniqlash va bartaraf etish uchun yuboriladi. Lekin taqdim qilinadigan ma'lumotlar ushbu yo'nalishda bajarilgan ishlarni aniqlash imkoniyatini bermayapti.

Gapni aylantirib javob beryapsizlar, muammo hal bo'lgani yo'q. Agar moratoriy e'lon qilish maqsadga muvofiq bo'lmasa, alohida sanoat zonalarini tashkil etish qiyin bo'lsa, so'rovda ko'tarilgan boshqa muammolarni hal qilishda real qiyinchiliklar bo'lsa, tegishli vazirliklar, hukumat uni umumlashtirishi kerak.

Bu muammo bizning sharoitda borgan sari dolzarblashib ketyapti. Necha yillar oldin Orol muammosi ham shunday boshlangan edi, hech kim e'tibor bermasdan shu holatga kelib qoldik. Hozir daryolarimiz bo'yicha vaziyat juda og'ir. Bu haqda xalq vakillari, jamoatchilik ham, biz, ya'ni parlament ham bong uryapmiz. Bu Vatanimiz taqdiri uchun eng dolzarb masala ekanini yoddan chiqarmaslik kerak.

Faxriddin BOZOROV
("Xalq so'zi").

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941.33 058 nuxsada bosildi. Hajmi — 2 tabto. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.15 Topshirildi — 00.15

1 2 3 4 5 6